

### **Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi**

Reja:

1. Korrupsiyaning ilk guvohi
2. “Soxta do‘st”dan ogoh bo‘l
3. Poraxo‘r taraqqiyotining negizi
4. Avlodlarga munosib meros yoxud poraxo‘rning o‘limi

- Ona, shifokorlarni rozi qilish yodingizdan chiqmasin-a...
- O‘zim yopgan sutli patir-u yog‘li qatiqlardan olib kelganman, bolam, havotir olma. Kelinim eson-omon qutulib olsa bas, yana olib kelib beraman.
- Iye, ona, pulingiz bo‘lmasa aytmaysizmi, bularingiz nima bo‘lardi. Eh, soddasiz-da, onajon, axir oq xalatning cho‘ntagi bejiz tikilmagan.

Go‘dak dunyoga keldi... Uning yorug‘ dunyoga kelishida? Hayotini sog‘-salomat davom ettirishida otasining “suyunchisi” uning tug‘ilishida bevosita ishtirok etgan ginekolog shifokor, doya ayol hamda hamshiralarning cho‘ntagidan joy oldi. Nima ham der edingiz?! Balki shunday bo‘lmaganida bola va uning onasi yaxshi parvarishsiz qolishar edi, bundan ham dahshatlirog‘i balki bu go‘dak yorug‘ dunyoni ko‘ra olmas, uning uvoli esa “baxtsiz bir hodisa” deya talqin etilar edi. Qaydam... Korrupsiya nomli bu jirkanch illat inson zotidan ham qimmatliroq bo‘lish darajasiga erishdimikan? Inson nomli buyuk zotning ko‘zlari nega korrupsiya “to‘r”i bilan bog‘liq?

Korrupsiya bir “virus” kabi har bir inson ongida uya qurib, “soya” kabi bizga har bir burchakdan tikilib turgandek go‘yo. Qing‘ir ishga bosh qo‘sha turib, “bu ohirgisi, endi boshqa qilmayman” deydiganlar “o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymasligini” bilishmasmikin?! Korrupsiyani senga beg‘araz yordamini ko‘rsatmoqchi, aslida esa oyog‘ingga bolta urmoq, bundan ham dahshatlisi, yaqinlaring va oila a‘zolaring turmushiga zarar yetkazmoqlikni ko‘zlagan “soxta

do'st"ga qiyoslash mumkin. Pora berib, ishing bitganidan quvonasan, ammo oilang, ya'ni Vataning, davlating qashshoqlashib, parokandalikka uchrayotganini, jabrdiyda xalqing qolib bir poraxo'r va ochko'z mansabdorning qornini to'yg'azayotganingni anglamaysan. Korrupsiyadan ayanchliroq illat yo'qligini u keltirib chiqarayotgan natijalardan ko'rsak:

**1) uyushgan jinoyatchilikni avj olishiga sabab bo'ldi.**

Bir zolim bir yoki undan ko'proq insonlarning hayotiga zomin bo'ldi. Biroq pora evaziga jinoiy javobgarlikdan qutulib qoldi. Ana qarabsizki, bir yoki undan ko'proq xavfli jinoyatchilar ozodlik nashidasini surishmoqda.

**2) savodsiz kadrlarni vujudga keltiradi.**

Ota niyat qilib chalasavod farzandini oliygohga kiritdi. Bolaning tarbiyasi og'irroq, oqishga tobi yo'qroq edi-yu, otaning hurmati har yerda baland edi. Shunday qilib, bola va uning bir nechta o'zi singari o'rtoqlari qizil diplomni qo'ltiqlab oliygohni tamomlashdi. Bugun biri – sudya, ikkinchisi – shifokor, uchinchisi esa uylar qurar emish...

**3) davlat g'aznasi bo'shab, mamlakat parokandalikka yuz tutadi.**

Muhtaram prezidentimiz davlatim gullab yashnasin, boshqa mamlakatlardan kam bo'lmasin, deya kuyib-yonadilar, mijja qoqmaydilar. Kuni kecha tashabbuslariga ko'ra aholi uchun arzon zamonaviy turar joylar, bolalar uchun bog'chalar qurilishi va maktablarni yangittan ta'mirlashga davlat g'aznasidan anchagina mablag' ajratildi. Biroq bu mablag'lar yuqoridan oqib kelaman deguncha "daryodan tomchi"ga aylanib qoldi. Endi ne ko'z bilan qarabsizki, yangi uylarning tomi qulagan, maktablar eski ko'rinishda...

Albatta, mamlakatimizda bu kabi holatlarga hech bir chora ko'rilayotgani yo'q desak, ayni yolg'on gapirgan bo'lamiz. Islohotlar bisyor... Bir necha yildan buyon oliygohlarga kirish imtihonlarida adolat arqoni tarang tortilgan edi, ilm olish yo'lida tunlarini bedor o'tkazganlarning yelkasiga shamol tegdi. Qator davlat xizmatlari ham xalqqa tegishli davlat idoralarida emas, "Davlat xizmatlari markazi"da ko'rsatiladigan bo'ldi. Bu harakatlar bugungi kunda anchayin samarasini ham ko'rsatmoqda.

Korrupsiya illatiga qarshi samarali kurash olib borgan davlatlarning tajribasini tahlil qilish asosida men ham bir nechta taklif va xulosalarga keldim:

### **1) Vatan ostonadan, tarbiya esa oiladan boshlanadi!**

Bir go‘dak korrupsiyaning guvohi sifatida yorug‘ dunyoga keldi. Endi uning ulg‘ayishi nega fan olimpiadasida u emas, boshqa bir bilimi sustroq bola yutgani, nega oliygohga u emas, bilimsizroq o‘rtog‘i kirgani to‘g‘risidagi savollarga javob izlash bilan kechadi. Korrupsiya go‘yo bir gravitatsion harakatga o‘xshaydi. Deylik, go‘dak dunyoga kelib, ushbu gravitatsion xalqa bo‘ylab kezib yuradi. Ayni hayotni anglashi lozim bo‘lgan chog‘da, u barcha korrupsion harakatlarning guvohi bo‘lib ulg‘ayadi, ulardan nusxa oladi. Endi ayting-chi, korrupsiya domiga tushib qolgan boladan kelajakda nimani kutish mumkin? Barcha korrupsion nohaqliklarning tirik guvohi bo‘lgan bola ertaga xuddi shunday o‘ch olmaydi, deya kim kafolat beradi?! Fikrimiz korrupsiyaga qarshi kurashdagi ilk qadamni bolalarni halol qilib tarbiyalashdan boshlash zarurligini tasdiqlaydi. Pand-nasihatlar bilan emas, balki aynan shaxsiy o‘rnak orqali. Zero, “ming shirin nasihatdan, bitta o‘rnak yaxshi” deydi dono xalqimiz.

### **2) Ko‘pchilik insonlar o‘z haq-huquqlarini yaxshi bilishmaydi.**

Bundan esa ayrim mansabdor shaxslar g‘arazli niyatda foydalanib qolishga urinishadi. Xalqning soddaligi va huquqiy bilimsizligidan foydalanib, aslida o‘z majburiyati bo‘lgan xizmatini pora evaziga “qo‘shimcha servis” sifatida xalqqa taklif qiladigan davlat xizmatchilari ham yo‘q emas. Sodda xalq esa “ishim bitsa foydaga” deya, so‘rab-surishtirmay beraverishadi. Buyuk adibimiz **Abdulla Qahhor**ning davlat xizmatlarida tomir yozgan korrupsiya to‘g‘risida ajoyib gaplari bor: *“O‘g‘ri ursa, molingni oladi-yu jo‘naydi. Poraxo‘r esa kuppakunduz kuni o‘z idorasida cho‘ntagingga qo‘l soladi-yu, biroq jim ketmaydi: jinoyatga seni ham sherik qilib oladi”*. Darhaqiqat, bu kabi tovlamachilarga aldanmaslik va jinoyatiga sherik bo‘lmaslik uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson omilini bartaraf etish, xizmat ko‘rsatish tizimlarini to‘la elektronlashtirish, murakkablashtirilgan

xizmatlarni xalq uchun qulay tarzda soddalashtirish va ortiqcha “qog‘ozbozlik”ka chek qo‘yish lozim.

### 3) “Pora – yagona yechim” illyuziyasiga bolta uraylik!

“Inson o‘g‘ri ura “dod, o‘g‘rini ushla” deydi, pora bergan esa “dod, poraxo‘rni ushla” demaydi. Chunki bunda inson ham o‘z manfaatini ko‘zlagan va jinoyatga sherik bo‘lgan bo‘ladi. Korrupsiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib, unda “olgan”ning ham, “bergan”ning ham qismati bir. Hozirda millionlab insonlar korrupsiyaga butunlay barham berish mumkinligiga uncha-da ishonishmaydi. Sababi oramizda so‘rasa-so‘ramasa pora tiqishtiraveradiganlar, afsuslar bo‘lsinkim, yo‘q emas. Biroq shunday bo‘lsa-da oramizda korrupsiyadan aziyat chekkan, unga nafrat bilan qaraydiganlar, bizningcha, ko‘proq. Shu tariqa korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lidagi yana bir muhim odim biz birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib nafaqat “olmasligimiz” va “bermasligimiz”, balki bu kabi holatlarga to‘qnash kelganimizda tegishli mutasaddi organlarga xabar berishimizdan iboratdir.

Bunaqada o‘z birodariga tuhmat qilish holatlari avj olib ketadi-ku qabilidagi fikrdagilarga Singapurning bu boradagi tajribasidan misol keltirsak: korrupsiyaga qarshi kurashda 50 yillik tajribaga ega bu davlatda pora olganlar bilan barobar, bu haqida yolg‘on xabar berganlar ham uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilinarkan.

O‘zgalarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, shaxsiy na‘muna korrupsiyaga qarshi kurashda uchinchi muhim qadam bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Buyuk Xitoy faylasufi **Konfutsiy** bu haqida shunday fikr bildirgan: *“Biz o‘z na‘munamizda munosib xulq-atvor egasi ekanligimizni ko‘rsatsak, kim o‘zini nomunosib tutishga jazm qilar edi?”*

### 4) “Qonun oldida shoh-u gado teng”.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borgan Singapur davlat rahbari **Li Kuan Yu** *“Korrupsiyaga qarshi kurashga bel bog‘ladingmi? Unda o‘z yaqinlaring va do‘stlaringni hibsga olishga tayyor tur”*, deya ta‘kidlagan. Korrupsiyaga yo‘l boshlovchi eng buyuk omil nima? Albatta, jazosiz qolishga bo‘lgan ishonch. Xulosamiz, jamiyatda barcha oddiy xizmatchidan tortib yuqori mansab egasigacha

korrupsion harakati uchun jinoiy jazoga tortilishi muqarrarligini singdirish ham, bu illatni bir qadar kamaytirishga yordam beradi.

Ha, korrupsiya tom ma'noda taraqqiyotning negiziga aylanib ulgurgan. Yo'q! Mamlakat taraqqiyotining negiziga emas, o'sha yuragi "jiz" etmay, qo'li titramay pora olgan, vijdonini shaytonga sotganlar traqqiyotining negiziga aylandi u. Bundaylar **Abdulla Qahhor** tilida: *"Kirpini pora deb bersang, bitgan tomog'ini ochish uchun uni butun yutadiganlardir"*. Nahotki biz kelajak avlodga shundaylarning jamiyatini qoldirib ketamiz? Yo'q! Korrupsiyaga qarshi kurashni bugunoq, hoziroq boshlaylik. Ildiz otgan bu illatni tomiri bilan sidirib tashlamasak, u bizdan bolalarimizga meros qolib, takror-takror sodir bo'lib, suyak surib boraveradi. Zero, buyuk ajdodlarimiz ham bizni to'g'rilik va halollikka chorlaganlarini unutmaylik:

*Dunyoning g'amin yema, Haqdin o'zgani dema,  
O'zganing molin yema, sirot uzra tutaro...*

**(Ahmad Yassaviy)**